



HOZIRGI GLOBALLASHUV DAVRIDA BO'LG'USI PEDAGOGLARNI TAYYORLASHDA MILLIY TARBİYANING O'ZIGA XOS TOMONLARI

Haydarova Marg'uba In'omovna,

Qo'qon davlat universiteti Pedagogika kafedrasida dotsenti, PhD.

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v18iB.1656>

MAQOLA HAQIDA/O STAT'BE

Qabul qilindi: 18-may 2026-yil

Tasdiqlandi: 21-may 2026-yil

Jurnal soni: 18-B

Maqola raqami: 3

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

globallashuv, milliy tarbiya, pedagog tayyorlash, milliy qadriyatlar, ma'naviyat, kompetentlik, ta'lim tizimi, tarbiya jarayoni

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Mazkur maqolada globallashuv jarayonlari sharoitida bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda milliy tarbiyaning o'rni, ahamiyati hamda o'ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, milliy qadriyatlar, urf-odatlar, ma'naviy meros va pedagogik an'analarni zamonaviy ta'lim tizimiga integratsiya qilish masalalari yoritilgan. Tadqiqot davomida pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda milliy tarbiyaning ta'siri, uning yoshlar ongida milliy identifikatsiyani mustahkamlashdagi roli ochib berilgan. Maqolada globallashuv sharoitida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlashning pedagogik mexanizmlari ham ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada milliy tarbiya jarayonini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda interaktiv metodlardan foydalanish imkoniyatlari ham yoritiladi. Milliy tarbiya asosida shakllantirilgan pedagogik yondashuv talabalarning tanqidiy fikrlashi, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi asoslab beriladi. Bundan tashqari, globallashuv sharoitida milliy o'zlikni saqlash va uni pedagogik jarayonda samarali qo'llash masalalari ham ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 18 May 2026

Approved: 21 May 2026

Volume: 18-B

Paper number: 3

KEYWORDS

globalization, national education, teacher training, national values, spirituality, competence, education system, educational process

ANNOTATION

This article analyzes the role, importance and specific aspects of national education in the training of future teachers in the context of globalization processes. It also covers the issues of integrating national values, customs, spiritual heritage and pedagogical traditions into the modern education system. The research reveals the influence of national education on the formation of professional competence of pedagogical personnel, its role in strengthening national identity in the minds of young people. The article also considers pedagogical mechanisms for ensuring the harmony of national and universal values in the context of globalization. The article also discusses the possibilities of combining the process of national education with modern pedagogical technologies and using interactive methods to improve the professional training of future teachers. It is substantiated that the pedagogical approach formed on the basis of national education has a positive impact on the development of students' critical thinking, independent decision-making ability and communicative competence. In addition, the issues of preserving national identity in the context of globalization and its effective use in the pedagogical process are also scientifically analyzed.

Kirish. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi, dunyo mamlakatlari o'rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalarning kengayishi natijasida jamiyat hayotining barcha sohalarida tub o'zgarishlar yuz bermoqda. Mazkur jarayon ta'lim tizimiga ham bevosita ta'sir ko'rsatib, zamonaviy bilim va kompetensiyalarga ega bo'lgan, mustaqil fikrlovchi hamda raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash zaruratini kuchaytirmoqda. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak pedagoglarni tayyorlash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Pedagog jamiyatning ma'naviy va intellektual taraqqiyotini belgilovchi asosiy shaxslardan biridir. Chunki aynan o'qituvchi yosh avlodning dunyoqarashi, tafakkuri, ma'naviyati va axloqiy fazilatlarini shakllantirishda yetakchi rol o'ynaydi. Shu sababli bo'lajak pedagoglarni nafaqat zamonaviy kasbiy bilimlar bilan qurollantirish, balki ularda milliy qadriyatlarga sodiqlik, vatanparvarlik, insonparvarlik va ma'naviy mas'uliyat kabi sifatlarini rivojlantirish ham muhim vazifa hisoblanadi. Ayniqsa, globallashuv sharoitida milliy tarbiya masalasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda dunyo miqyosida madaniy integratsiya jarayonlari kuchayib borayotgan bo'lsa-da, ayrim hollarda bu holat milliy qadriyatlarining zaiflashuvi, ma'naviy begonlashuv, yoshlarning ommaviy madaniyat ta'siriga berilishi kabi muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Turli internet platformalari, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalari orqali kirib kelayotgan yot g'oyalari yoshlar ongiga sezilarli ta'sir o'tkazmoqda. Natijada ayrim yoshlarda milliy an'analarga befarqlik, tarixiy xotiraning sustlashuvi va ma'naviy qadriyatlarga nisbatan loqaydlik holatlari kuzatilmoqda. Bunday sharoitda pedagoglarning milliy ong va yuksak ma'naviyatga ega bo'lishi jamiyat barqarorligini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Milliy tarbiya xalqning asrlar davomida shakllangan ma'naviy merosi, urf-odatlarini, an'analarini, axloqiy qarashlari va madaniy qadriyatlariga tayangan holda insonni kamol toptirishga xizmat qiladi. O'zbek xalqining boy pedagogik tajribasi, Sharq mutafakkirlarining ilmiy-ma'rifiy qarashlari hamda jadid ma'rifatparvarlarining ta'lim-tarbiyaga oid g'oyalari bugungi pedagogik ta'lim uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy,

Abdulla Avloniy kabi allomalar asarlarida komil inson tarbiyasi, odob-axloq, ilm-ma'rifat va vatanparvarlik masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Ushbu pedagogik meros bugungi globallashuv davrida ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda milliy tarbiya elementlaridan samarali foydalanish ularda pedagogik mahorat bilan bir qatorda ma'naviy yetuklikni ham shakllantiradi. Chunki zamonaviy pedagog faqat bilim beruvchi emas, balki yoshlar uchun ma'naviy namuna, tarbiyachi va yo'l ko'rsatuvchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan pedagogik ta'lim jarayonida milliy qadriyatlarini integratsiya qilish, talabalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga e'tibor qaratish muhim pedagogik vazifa sanaladi.

Mamlakatimizda ham ta'lim tizimini rivojlantirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlash hamda yoshlarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga katta e'tibor berilmoqda. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida yoshlarning ma'naviy-intellektual salohiyatini oshirish, milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash va pedagog kadrlar sifatini takomillashtirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. Bu esa pedagogik ta'lim tizimida milliy tarbiyaning mazmuni va metodlarini zamon talablari asosida takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Globallashuv jarayonlarining murakkab va ziddiyatli jihatlari pedagoglardan keng dunyoqarash, mustahkam ma'naviy pozitsiya va milliy o'zlikni anglashni talab etadi. Shu bois bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda milliy tarbiyaning o'ziga xos tomonlarini ilmiy asosda o'rganish, uni ta'lim amaliyotiga samarali joriy etish ham nazariy, ham amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada aynan globallashuv sharoitida milliy tarbiyaning pedagog tayyorlashdagi o'rni, uning asosiy xususiyatlari va ta'lim jarayonidagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. Globallashuv sharoitida milliy tarbiya va bo'lajak pedagoglarni tayyorlash masalasi pedagogika fanining dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida keng tadqiq etilmoqda. Mazkur muammo yuzasidan Sharq mutafakkirlari, jadid ma'rifatparvarlari hamda zamonaviy pedagog olimlarning ilmiy qarashlari muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, milliy tarbiya insonning

ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida talqin etiladi.

Sharq mutafakkirlaridan Abu Nasr Forobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asarida jamiyat taraqqiyoti insonning axloqiy yetukligi va ilm-rifati bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, tarbiya insonni komillikka yetaklovchi muhim vosita bo'lib, unda ezgulik, adolat, insonparvarlik va ma'naviy poklik kabi fazilatlar shakllanishi zarur [1, 45-b.]. Forobiy yoshlarni tarbiyalashda ustoz shaxsining roliga ham alohida e'tibor qaratib, pedagogning bilimdonligi bilan bir qatorda yuksak axloq egasi bo'lishi lozimligini qayd etadi.

Abu Ali ibn Sino pedagogik qarashlarida inson tarbiyasini jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida baholaydi. Uning "Donishnoma" va boshqa asarlarida yoshlarni tarbiyalashda oilaning, ijtimoiy muhitning hamda ta'limning ahamiyati keng yoritilgan. Ibn Sino bolaning ma'naviy va jismoniy jihatdan barkamol bo'lib voyaga yetishida milliy qadriyatlar, odob-axloq va mehnat tarbiyasi muhim o'rin tutishini ta'kidlaydi [2, 67-b.]. Shuningdek, olim pedagog shaxsiga xos sabr-toqat, bilimdonlik, mehribonlik kabi sifatarni samarali tarbiyaning asosiy sharti sifatida ko'rsatadi.

Alisher Navoiy asarlarida komil inson tarbiyasi markaziy o'rin egallaydi. Mutafakkir "Mahbub ul-qulub" asarida insonning ma'naviy kamoloti, axloqiy fazilatlarini va ilmning jamiyat hayotidagi o'rni haqida muhim fikrlarni ilgari suradi [3, 102-b.]. Navoiy yoshlarni vatanparvarlik, saxovat, adolat va insoniylik ruhida tarbiyalash zarurligini ta'kidlaydi. Uning qarashlari bugungi kunda ham pedagogik ta'lim tizimida milliy tarbiya mazmunini boyitishda muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Jadid ma'rifatparvarlari, xususan Abdulla Avloniy milliy tarbiya masalasiga alohida e'tibor qaratgan. Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida tarbiya masalasini millat kelajagi bilan bog'lab, "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot" ekanligini ta'kidlaydi [4, 34-b.]. U yosh avlodni milliy qadriyatlarga hurmat, ma'rifatparvarlik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash zarurligini ilgari surgan. Jadid pedagoglari ta'lim tizimini zamonaviylashtirish bilan bir qatorda milliy o'zlikni saqlab qolishga ham katta e'tibor qaratganlar.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda ham milliy tarbiya va globallashtirish o'rtasidagi munosabatlar keng o'rganilmoqda. Pedagog olim J. Xasanboyevning ta'kidlashicha, globallashtirish sharoitida pedagogik ta'limning asosiy vazifalaridan biri talabalarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan dunyoqarashni shakllantirishdan iboratdir [5, 58-b.]. Olim pedagoglarning ma'naviy tayyorgarligi yosh avlod tarbiyasining samaradorligiga bevosita ta'sir qilishini qayd etadi.

O. Musurmonovning ilmiy qarashlarida oila va milliy qadriyatlarining yoshlar ma'naviyatini shakllantirishdagi o'rni keng yoritilgan. Tadqiqotchining fikricha, milliy tarbiya yoshlarni ma'naviy tahdidlardan himoya qiluvchi muhim omil hisoblanadi [6, 91-b.]. Ayniqsa, globallashtirish jarayonlarida yoshlarning milliy identifikatsiyasini saqlab qolishda oilaviy va pedagogik tarbiyaning uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, pedagogik texnologiyalar bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda milliy tarbiya elementlarini zamonaviy metodlar bilan integratsiya qilish ta'lim samaradorligini oshirishi ta'kidlanadi. J. Yo'ldoshev va S. Usmonovlarning ilmiy ishlarida interaktiv metodlar, innovatsion yondashuvlar hamda ma'naviy-ma'rifiy faoliyatlarini uyg'unlashtirish orqali bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish mumkinligi qayd etilgan [7, 76-b.].

So'nggi yillarda davlat siyosati darajasida ham yoshlar ma'naviyati va pedagog kadrlar tayyorgarligiga katta e'tibor qaratilmoqda. Sh.M. Mirziyoyev asarlarida ta'lim tizimini rivojlantirish, yoshlarni milliy qadriyatlarga sodiq va zamonaviy bilimlarga ega shaxslar etib tarbiyalash masalalari ustuvor vazifa sifatida belgilangan [8, 214-b.]. Bu esa pedagogik ta'lim tizimida milliy tarbiya mazmunini boyitish va uni amaliyotga samarali tatbiq etish zaruratini kuchaytiradi.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, milliy tarbiya bo'lajak pedagoglarni tayyorlashning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. U pedagoglarning kasbiy mahorati bilan bir qatorda ma'naviy-axloqiy sifatlarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, globallashtirish sharoitida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlash

zamonaviy pedagogik ta'limning asosiy vazifalaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda globallashtirish sharoitida bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda milliy tarbiyaning o'ziga xos jihatlarni o'rganish maqsadida pedagogik tahlil, qiyosiy-taqqoslash, kuzatish va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida milliy tarbiya, pedagogik kompetentlik hamda ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid ilmiy manbalar, pedagog olimlarning ilmiy qarashlari va normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Shuningdek, globallashtirishning yoshlar tarbiyasiga ta'siri hamda milliy qadriyatlarini pedagogik ta'lim jarayoniga integratsiya qilishning samarali usullari ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan o'rganildi.

Natijalar. Tadqiqot davomida globallashtirish sharoitida bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida milliy tarbiyaning muhim pedagogik omil ekanligi aniqlandi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, milliy qadriyatlar asosida tashkil etilgan ta'lim-tarbiya jarayoni pedagoglarning nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalarini, balki ularning ma'naviy-axloqiy sifatlarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, milliy tarbiya elementlari bilan boyitilgan pedagogik yondashuv talabalarda milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotiraga hurmat, vatanparvarlik va ijtimoiy mas'uliyat kabi fazilatlarini shakllantirishda samarali natijalar berishi kuzatildi.

O'rganishlar davomida bo'lajak pedagoglarning aksariyati globallashtirish jarayonlarining ijobiy jihatlari bilan bir qatorda ayrim salbiy ta'sirlarini ham anglab yetishi, xususan ommaviy madaniyat, axborot xurujlari va begona qadriyatlarining yoshlar ongiga ta'siri haqida yetarli tasavvurga ega ekanligi aniqlandi. Shu bilan birga, pedagogik ta'lim jarayonida milliy tarbiya masalalariga muntazam e'tibor qaratilgan hollarda talabalarining ma'naviy barqarorligi va kasbiy motivatsiyasi sezilarli darajada oshishi kuzatildi. Bu holat milliy tarbiyaning pedagog shaxsini shakllantirishdagi amaliy ahamiyatini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, milliy qadriyatlarga asoslangan treninglar, tarixiy-madaniy merosni o'rganishga qaratilgan mashg'ulotlar va interaktiv metodlardan foydalanish bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, ajdodlar merosi, xalq pedagogikasi va milliy urf-odatlariga oid mavzularning pedagogik fanlar bilan integratsiya qilinishi talabalarining kasbiy faoliyatga bo'lgan qiziqishini oshirishga xizmat qilishi aniqlandi.

Shuningdek, tadqiqot davomida milliy tarbiya asosida shakllangan pedagoglarda kommunikativ madaniyat, bag'rikenglik, jamoa bilan ishlash ko'nikmalari va o'quvchilar bilan samarali muloqot qilish kompetensiyalari yuqori darajada rivojlanishi kuzatildi. Bu esa milliy tarbiyaning faqat ma'naviy-axloqiy emas, balki ijtimoiy-pedagogik jihatdan ham muhim omil ekanligini tasdiqlaydi.

Tahlillar natijasida globallashtirish sharoitida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlash bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligida muhim o'rin tutishi ma'lum bo'ldi. Chunki zamonaviy pedagog xalqaro tajribalardan foydalangan holda, o'z milliy qadriyatlariga sodiq qolishi va ularni yosh avlod ongiga singdira olishi zarur. Shu jihatdan milliy tarbiya pedagogik ta'limning mazmunini asoslaridan biri sifatida xizmat qilishi aniqlandi.

Bundan tashqari, tadqiqot natijalari pedagogik oliy ta'lim muassasalarida milliy tarbiya komponentlarini kuchaytirish, ma'naviy-ma'rifiy fanlar ulushini oshirish hamda innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirilgan tarbiyaviy dasturlarni joriy etish zarurligini ko'rsatdi. Bu esa bo'lajak pedagoglarning zamonaviy bilimlarga ega, milliy tafakkurli va yuksak ma'naviyatli mutaxassis sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida olingan natijalar bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda milliy tarbiya komponentlarining muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi. Ayniqsa, milliy qadriyatlar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarining ma'naviy-axloqiy sifatlarini, kasbiy kompetentligi va ijtimoiy faolligini rivojlantirishda samarali omil sifatida namoyon bo'ldi. Quyidagi jadvalda milliy tarbiyaning bo'lajak pedagoglar tayyorgarligiga ta'sir etuvchi asosiy yo'nalishlari hamda ularning pedagogik natijalari keltirilgan.

№	Milliy tarbiya yo'nalishlari	Pedagogik ta'siri	Kuzatilgan natijalar
1	Milliy qadriyatlarini o'rgatish	Talabalarda milliy ong va o'zlikni shakllantiradi	Vatanparvarlik va milliy g'urur hissi kuchaydi
2	Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar	Ma'naviy-axloqiy tarbiyani rivojlantiradi	Talabalarining ijtimoiy faolligi oshdi
3	Ajdodlar merosini o'rganish	Tarixiy xotira va madaniy tafakkurni boyitadi	Milliy merosga hurmat shakllandi
4	Xalq pedagogikasidan foydalanish	Pedagogik kompetentlikni rivojlantiradi	Kasbiy motivatsiya kuchaydi
5	Interaktiv metodlar asosidagi tarbiya	Mustaqil va kreativ fikrlashni rivojlantiradi	Ta'lim jarayonidagi faollik ortdi
6	Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi	Bag'rikenglik va kommunikativ madaniyatni shakllantiradi	Jamoada ishlash ko'nikmalari rivojlandi
7	Oila va ta'lim hamkorligi	Tarbiyaviy jarayon samaradorligini oshiradi	Ma'naviy barqarorlik mustahkamlandi

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, milliy tarbiya bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi bilan bir qatorda ularning ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy kompetensiyalarini ham rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, milliy qadriyatlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar uyg'unligida tashkil etilgan ta'lim jarayoni pedagoglarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini yanada kuchaytirishga xizmat qiladi.

Muhokama. Tadqiqot natijalari tahlili shuni ko'rsatadiki, globallashuv sharoitida bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayonida milliy tarbiya komponentlarining ahamiyati yanada ortib bormoqda. Chunki zamonaviy ta'lim tizimi faqat bilim berish bilan cheklanib qolmay, balki shaxsning ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishni ham o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Shu jihatdan milliy tarbiya pedagogik jarayonning ajralmas tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, globallashuv jarayonida axborot oqimining kuchayishi, madaniy integratsiyaning kengayishi va ommaviy madaniyat ta'siri yoshlar ongiga turlicha ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa pedagoglardan nafaqat kasbiy bilim, balki kuchli ma'naviy immunitet va milliy qadriyatlarga sodiqlikni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, milliy tarbiya bo'lajak pedagoglarning mafkuraviy barqarorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida qaraladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari milliy tarbiya elementlarining pedagogik kompetentlikni rivojlantirishdagi o'rnini ham tasdiqlaydi. Xususan, milliy qadriyatlar, xalq pedagogikasi va ajdodlar merosidan foydalanish talabalarida kasbiy motivatsiyani oshiradi, pedagogik faoliyatga ijodiy yondashuvni shakllantiradi hamda ta'lim jarayonini yanada samarali tashkil etishga yordam beradi. Bu esa pedagogning nafaqat o'qituvchi, balki tarbiyachi sifatidagi rolini kuchaytiradi.

Muhokama jarayonida yana bir muhim jihat shundan iboratki, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi zamonaviy pedagogik ta'limning asosiy tamoyillaridan biri bo'lishi lozim. Milliy tarbiya faqat an'anaviy qadriyatlarni saqlab qolish vositasi emas, balki zamonaviy innovatsion yondashuvlar bilan uyg'unlashgan holda shaxsni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiluvchi tizim sifatida qaralishi zarur. Bu

yondashuv pedagogik ta'lim sifatini oshirishga va xalqaro ta'lim standartlariga mos mutaxassislar tayyorlashga imkon beradi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari pedagogik oliy ta'lim muassasalarida milliy tarbiya jarayonini tizimli tashkil etish zarurligini ko'rsatadi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar, interaktiv metodlar, treninglar va amaliy mashg'ulotlar orqali talabalarda milliy ong va kasbiy kompetentlikni birgalikda rivojlantirish samarali natija beradi. Ayniqsa, o'qituvchining shaxsiy namunasi bu jarayonda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Muhokama natijalari shuni tasdiqlaydiki, globallashuv davrida milliy tarbiya bo'lajak pedagoglarni tayyorlashning strategik yo'nalishi sifatida qaralishi lozim. Chunki milliy qadriyatlarga tayangan pedagogik yondashuv yosh avlodning ma'naviy barqarorligini ta'minlaydi va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Xulosa. Globallashuv sharoitida ta'lim tizimida yuz berayotgan o'zgarishlar bo'lajak pedagoglarni tayyorlash jarayoniga yangicha yondashuvlarni joriy etishni talab etmoqda. Bunday sharoitda milliy tarbiya shaxsning ma'naviy-axloqiy kamolotini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Milliy qadriyatlar, urf-odatlar va ajdodlar merosi asosida shakllangan tarbiyaviy yondashuv pedagoglarda milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik va ma'naviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Pedagogik faoliyatda milliy tarbiya elementlaridan foydalanish o'qituvchining kasbiy mahoratini boyitadi, uning tarbiyaviy ta'sir kuchini oshiradi hamda yosh avlodni har tomonlama yetuk shaxs sifatida shakllantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini ta'minlash zamonaviy pedagogning asosiy kasbiy va ma'naviy mezonlaridan biri bo'lib qolmoqda. Ta'lim jarayonida milliy tarbiya mazmunini innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish orqali talabalarning ijodiy fikrlashi, kommunikativ madaniyati va ijtimoiy faolligini rivojlantirish imkoniyati kengayadi. Bu esa pedagogik jarayonning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Milliy tarbiya bo'lajak pedagog shaxsining shakllanishida muhim o'rin tutadi va uning kasbiy hamda ma'naviy jihatdan yetuk mutaxassis bo'lib yetishishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Forobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. – 320 b.
2. Ibn Sino Abu Ali. Donishnoma. – Toshkent: Fan, 1981. – 256 b.
3. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2017. – 280 b.
4. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 2013. – 144 b.
5. Xasanboyev J., To'raqulov X. Pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 432 b.
6. Yo'ldoshev J., Usmonov S. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2014. – 240 b.

7. Musurmonova O. Oila ma'naviyati – milliy g'urur. – Toshkent: O'qituvchi, 2011. – 198 b.
8. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 464 b.
9. Karimov N. Ma'naviyat asoslari. – Toshkent: Ma'naviyat, 2012. – 240 b.
10. Sodiqova M. Pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 288 b.
11. G'oziev E. Psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2010. – 384 b.
12. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2015. – 320 b.
13. Tojiboev A. Zamonaviy pedagogika asoslari. – Toshkent: Fan, 2020. – 300 b.